

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING AFZALLIKLARI

Rajabova Muqaddas Maxsud qizi

Buxoro davlat universiteti "Tarix va Yuridik" fakulteti

5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tushunchasi, ularning huquqiy asoslari, himoya qilish mexanizmlari va ularning afzalliklari tahlil qilinadi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning amaliy ahamiyati va zamonaviy jamiyatdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar:

Shaxsiy ma'lumotlar, huquqiy himoya, axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, huquqiy mexanizm.

Kirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet xizmatlari va elektron platformalarning keng qo'llanilishi shaxsiy ma'lumotlar muomalasini keskin oshirdi. Shaxsiy ma'lumotlar turli tizimlarda yig'ilishi, saqlanishi va qayta ishlanishi natijasida ularning daxlsizligini ta'minlash dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqdi. Noqonuniy foydalanish, ruxsatsiz tarqalish va buzib talqin qilish shaxsning huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish va amaliyotda qo'llash muhim vazifa hisoblanadi.

Metodologik tahlil

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimli va mantiqiy tahlil qilishga qaratildi. Avvalo, tahlil va sintez usuli orqali shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi, ularning huquqiy mohiyati hamda himoya mexanizmlarining mazmuni o'rganildi. Ushbu usul yordamida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid huquqiy normalar alohida-alohida tahlil qilinib, keyinchalik yagona tizim sifatida umumlashtirildi. Mantiqiy tahlil usuli maqola davomida asosiy tushunchalar va xulosalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi. Bu usul shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilishning afzalliklarini asoslab berishga xizmat qildi. Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun normalari o'rganildi. Ushbu usul shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini aniqlash va ularning amaldagi mexanizmlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarining umumiy xususiyatlari va ularning zamonaviy huquqiy institut sifatidagi o'рни baholandi. Bu usul tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslashga imkon berdi. Induksiya va deduksiya usullari orqali alohida huquqiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda umumiy nazariy qarashlar asosida aniq huquqiy mexanizmlarga baho berildi.

Shaxsiy ma'lumot tushunchasi va huquqiy asoslari

Shaxsiy ma'lumotlar— bu muayyan jismoniy shaxsni aniqlashga yoki bilvosita aniqlash imkonini beruvchi har qanday axborotdir. Masalan, familiya, ism, tug'ilgan sana va joy, yashash manzili, telefon raqami, elektron pochta, biometrik, moliyaviy va ijtimoiy holatga oid ma'lumotlar shaxsiy ma'lumot hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Konstitutsiya va "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Konstitutsiyada shaxsiy hayot daxlsizligi va yozishmalar sir saqlanishi kafolatlangan. Maxsus qonun

esa shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qator mexanizmlardan iborat: qonuniylik prinsipi ma'lumotlar faqat qonunda belgilangan asoslarda va maqsadlarda yig'ilishi kerak. Rozilik prinsipi bu shaxsning roziligi olinmasdan uning ma'lumotlari ishlatilmaydi. Maqsadga muvofiqlik ma'lumotlar faqat ularni yig'ish maqsadida ishlatiladi. Yetarlilik va lozimlik faqat zarur ma'lumotlar yig'iladi. Davlat nazorati shaxsiy ma'lumotlar muomalasi ustidan davlat organlari tomonidan nazorat o'rnatiladi. Javobgarlik bu qonunni buzganlar uchun ma'muriy yoki boshqa javobgarlik choralari belgilangan. Ushbu mexanizmlar shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilishning afzalliklari Shaxsiy ma'lumotlarni barqarorlikni kuchaytiradi. Iqtisodiy samaradorlik firibgarlik va noqonuniy axborot muomalasi holatlari kamayadi. Raqamli iqtisodiyot va elektron boshqaruv tizimlari rivoji qulay huquqiy muhit yaratiladi.

Xulosa

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mexanizmlarning samarali qo'llanilishi shaxsiy hayot daxlsizligini kafolatlash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirish va amaliyotda tatbiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli qonuni
3. Abdurahmonov S., Huquqiy himoya va shaxsiy ma'lumotlar, T., 2021.